

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o'rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish

markazi hududiy xay'at raisi  
L.X. Musadjanova



«12» dekabr 2025 y.

**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o'rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
direktori

L.X. Musadjanova

«12» dekabr 2025y.



**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

## **Stomatologiya ishi**

(sikli bo'yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

**O'QUV DASTURI**

**(288-kredit )**

**Toshkent-2025 yil**

**TUZUVCHILAR:**

M.X.Maxamatova Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevt  
xodimlari malakasini oshirish va  
ixtisoslashtirish markazi Navoiy filiali o'quv  
ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

X.U. Muradov Uchtepa bolalar stomatologiya poliklinikasi  
shifokori

M.M. Ismailova Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevt  
xodimlari malakasini oshirish va  
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

**TAQRIZCHILAR:**

Z.R Tadjiyeva Uchtepa bolalar stomatologiya poklinikasi  
bosh shifokori SSBBning "Kattalar  
va bolalar" bosh stomatologi

SH.SH.Shotursunov Uchtepa bolalar stomatologiya poklinikasi  
Ortopedik stomatologiya bo'limi mudiri

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida  
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 20 25 y.

Pedagogik kengash raisi



bayonnoma № 6

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama  
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 20 25 y.

bayonnoma № 5

## 1. Kirish.

Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash, ixtisoslashtirish, stomatologiya ishini axoli salomatligi xizmatida xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizimni yaxshilash maqsadida yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. Modul asosida tuzilgan dasturda o'quv fanning mazmuni uni o'zlashtirish shakli va usullari bilan birlashgan. "Stomatologiya ishi" o'quv dasturi o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan bo'lib, 3 yildan 7 yilgacha mehnat stajida uzilish bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlarini 288 kredit (2 oy) ixtisoslashtirish uchun ishlab chiqilgan.

Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korruptsiyaning oldini olish" moduli kiritildi. Kasbiy rivojlantirish modulida ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimning uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan.

### 1.1. Maqsad:

Stomatologik kabinetlarda ishlashga tayyor, yuqori malakali, zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan hamshiralarni tayyorlashdan iborat. Shuningdek stomatologik kasalliklarni profilaktika qilish, stomatolog-shifokorga davolash jarayonida assistentlik qilish, asbob-uskunalarini tayyorlash va sterilizatsiya qilish, bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

O'qish natijasida "Stomatologiya ishi" bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish, kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, mavjud malaka doirasida ularning kasbiy darajasini oshirishdan iborat.

### 1.2. Vazifalar:

- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- stomatologiya kabineti faoliyatini tashkil etish va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishni o'rgatish;
- stomatologik asbob-uskunalarini tayyorlash, dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish usullarini o'rgatish;
- shifokor-stomatologga qabul vaqtida yordam berish;
- bemorlarni qabul qilish, ularni tayyorlash va tibbiy hujjatlarni yuritish;
- stomatologik kasalliklarning profilaktikasi va og'iz bo'shlig'i gigiyenasi bo'yicha tushuncha berish;
- tez tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish;
- zamonaviy stomatologik uskunalar va materiallar bilan ishlashni o'rgatish.
- sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

### 1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi Respublika davolash profilaktika muassasalarining stomatologiya ishi yo'nalishida faoliyat olib borishni rejalashtirgan, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan, mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

#### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- tibbiy etika va deontologiyani asoslarini tushungan, amalda qo'llay oladigan, yetuk mutaxassis bo'lishi;
- amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, soha bo'yicha zamonaviy yutuqlardan xabardor bo'lib, uni amalda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni amalda qo'llay olishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- bemorning asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganish va baholash;
- stomatologiyani o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi;
- stomatologiya asbob uskunalar bilan ishlash qonun-qoidalarini bilishi;
- stomatologiya xonasida ish joyini tashkil qilishni;
- stomatologik steril stolni jihozlash va undan foydalanishi;
- muolajadan so'ng qo'llanilgan stomatologik asboblarni birlamchi tozalovdan o'tkazish va zararsizlantirishi;
- davolash jarayonida vrachga yordam berishni: malham, pastalarni, plomba ashyolarini qorishni.
- mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan holda, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lish.

#### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

Aholi o'rtasida tish va og'iz bo'shlig'i kasalliklari keng tarqalgan. Stomatologik xizmatga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Zamonaviy stomatologik klinikalarda shifokorga malakali assistent-hamshiralar zarur. Stomatologiya amaliyotida asboblarni sterilizatsiya qilish, infeksiyalarni oldini olish va sanitariya talablariga qat'iy rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Bemorlarga sifatli va xavfsiz stomatologik yordam ko'rsatish uchun hamshiraning kasbiy tayyorgarligi, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida tibbiy kadrlarni qayta tayyorlash va ixtisoslashtirish, stomatolog hamshiralarning o'z sohasining yetuk mutaxassislari sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 288 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

#### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:** Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zR SSV ning 2020 yil 15 iyundagi № 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik 30 daqiqa.

**1.9. Ixtisoslashtirishdan so'ng:** o'quv kursini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Stomatologiya ishi" yo'nalishi bo'yicha 288 kredit ixtisoslashtirish o'tganligi haqida davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

### **2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:**

- tinglovchini fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbir etish;
- hamkasblar va kichik tibbiy xodimlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- o'z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-xuquqiy meyorlarga mos holda olib borish ko'nikmalarini yangilaydi;
- konfidensial ma'lumotlar bilan ishlashda tibbiyot xodimi etikasi, kasbiy sir nuqtai nazaridan kelib chiqib bemorlarni irqi, dini, millati va moddiy ta'minot darajasidan qat'iy nazar ularga hurmat va e'tibor

ko'rsatish;

*Tashkiliy-boshqaruv kompetensiyasi*

- Stomatologiya kabineti ishini to'g'ri tashkil etish.
- Ish joyini sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq tayyorlash.
- Tibbiy hujjatlarni yuritish va hisobot ishlarini bajarish.

*Klinik-amaliy kompetensiya*

- Bemorni qabul qilish va stomatologik muolajaga tayyorlash.
- Shifokor-stomatologga davolash jarayonida assistentlik qilish (4 qo'l usuli).
- Stomatologik asbob-uskunalar va materiallar bilan ishlash.

*Sanitariya-gigiyenik kompetensiya*

- Asbob-uskunalarini dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish.
- Infekcion nazorat qoidalariga rioya qilish.
- Stomatologik kabinetda sanitariya-epidemiologik tartibni ta'minlash.

*Profilaktik kompetensiya*

- Og'iz bo'shlig'i gigiyenasi bo'yicha bemorlarga maslahat berish.
- Tish kasalliklarining oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlarda ishtirok etish.
- Aholi o'rtasida sanitariya-ma'rifiy ishlar olib borish.

*Tez tibbiy yordam kompetensiyasi*

- Stomatologik qabul vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
- Anafilaktik shok, hushdan ketish kabi holatlarda shifokorga yordam berish.

*Kommunikativ kompetensiya*

- Bemorlar bilan to'g'ri muloqot qilish.
- Bemorlarga davolash va profilaktika haqida tushuntirish ishlarini olib borish.
- Tibbiy jamoa bilan samarali hamkorlik qilish.

*Axborot-texnologik kompetensiya*

- Stomatologik kabinetda qo'llaniladigan axborot tizimlari bilan ishlash.
- Elektron tibbiy hujjatlarni yuritish.

### 3. DASTUR MAZMUNI

#### 3.1. "Stomatologiya ishi" 288 kredit ixtisoslashtirish kursi o'quv rejasi

| №   | Modul va mavzular nomi   | Auditoriya mashg'ulotlari |                    |                   |              |
|-----|--|---------------------------|--------------------|-------------------|--------------|
|     |  | Kredit                    | Nazariy mashg'ulot | Amaliy mashg'ulot | Attestatsiya |
| 1.0 | <b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>  | <b>60</b>                 | <b>36</b>          | <b>24</b>         |              |
| 1.1 | Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. | 6                         | 6                  | -                 |              |
| 1.2 | Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar   | 6                         | 2                  | 4                 |              |
| 1.3 | Modul: Xorijiy til.  | 6                         | 2                  | 4                 |              |
| 1.4 | Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.   | 6                         | 6                  | -                 |              |
| 1.5 | Modul: Infekcion nazorat   | 12                        | 8                  | 4                 |              |
| 1.6 | Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.  | 6                         | 2                  | 4                 |              |
| 1.7 | Modul:Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari.Jismoniy faollik  | 6                         | 4                  | 2                 |              |
| 1.8 | Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.                              | 12                        | 6                  | 6                 |              |
| 2.0 | <b>Mutaxassislik fani modullari</b>  | <b>222</b>                | <b>76</b>          | <b>146</b>        |              |

|            |  |            |            |            |          |
|------------|--|------------|------------|------------|----------|
| 2.1        | Modul: Stomatologiya xizmatining tashkil etilishi. Stomatologik kabinetning tuzilishi va jihozlanishi.       | 12         | 4          | 8          |          |
| 2.2        | Modul: Og'iz bo'shlig'i anatomiyasi va fiziologiyasi Og'iz bo'shlig'i gigiyenasi                             | 6          | 2          | 4          |          |
| 2.3        | Modul: Stomatologik asbob-uskunalar ularning turlari. Asboblarni dezinfeksiya qilish va sterillash usullari. | 6          | 2          | 4          |          |
| 2.4        | Modul: Terapevtik stomatologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va hamshira parvarishi.                         | 36         | 12         | 24         |          |
| 2.5        | Modul: Xirurgik somatologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va hamshira vazifalari.                            | 36         | 12         | 24         |          |
| 2.6        | Modul: Yuz-jag' jarrohligining o'ziga xos xususiyatlari .  | 30         | 10         | 20         |          |
| 2.7        | Modul: Bolalar stomatologiyasining asoslari. Bolalarda og'iz bo'shlig'i gigiyenasi.                          | 30         | 10         | 20         |          |
| 2.8        | Modul: Bolalar stomatologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, hamshira parvarishi.                            | 36         | 12         | 24         |          |
| 2.9        | Modul: Stomatologiyada anesteziya turlari. Tish olish amaliyotida hamshira vazifasi                          | 30         | 12         | 18         |          |
| <b>3.0</b> | <b>Attestatsiya</b>  | <b>6</b>   |            |            | <b>6</b> |
|            | <b>Jami</b>  | <b>288</b> | <b>112</b> | <b>170</b> | <b>6</b> |

**“Stomatologiya ishi ” 288 kredit ixtisoslashtirish o‘quv modullarining mazmuni.**

**1.1. Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Islohotlar markazida “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil ustuvor. Yurtimizda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hamda sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo‘nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas‘uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma‘lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

**1.2. Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.** Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma‘lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish. Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma‘lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. “Tibbiyot informatikasi asoslari” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;

hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma‘lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

**1.3. Modul. Xorijiy til.** Ingliz tilini o‘qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o‘rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo‘llaniladigan terminlar. The verb “to be”, “to have” Introducing yourself. Tana a‘zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko‘p uchraydigan kasalliklar, kasallik

belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kasalliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan holda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

**1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.** Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

**1.5. Modul. Infekcion nazorat.** Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va meyorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot. Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

**1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.** Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

**1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

**1.8. Modul. Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.** Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaz usuli) va evakuatsiya qilish. Transportirovka qoidalari.

Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish:

- O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam;
- Jarohatlarda, suyak sinishlarda va Krash sindromida birinchi yordam;
- Kuyishda birinchi yordam;
- Elektrdan shikastlanishda birinchi yordam;
- O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam;
- Bo'g'ilishda birinchi yordam;
- Cho'kishda birinchi yordam;

-Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam;

-Hasharotlar chaqishida va xayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. O'tkir yurak qon tomir va nafas yetishmovchiligi, kelib chiqish sabablari. Nafas yullari obstruksiyasi. Yot jism nafas yullariga tushganda Geymlix usulini ko'llash texnikasi. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak -o'pka reanimatsiyasi (SAB) va uni bajarish algoritmi. Kritik holatlar (xushdan ketish, kollaps, shok, koma). Turlari, sabablari, klinik belgilari va yordam ko'rsatish.

**2.1. Modul. Stomatologiya xizmatining tashkil etilishi. Stomatologik kabinetning tuzilishi va jihozlanishi.** Aholiga stomatologik yordamni tashkil etish. Stomatologik kasalliklarni oldini olishda tibbiyot hamshirasining vazifasi. Stomatologik poliklinika. Stomatologik poliklinikadagi bo'limlar va xizmat turlari. Stomatologik bo'lim xonalarini jihozlash. Zamonaviy stomatologik moslamalar, asbob va uskunalar. Stomatologiya xonasi hamshirasining lavozimlik vazifalari. Stomatologiya xonasida ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Stomatologik bemorlarni tekshiruvlarga tayyorlash. Stomatologik bemorlarni zamonaviy qo'shimcha tekshirish usullariga tayyorlash. Og'iz shilliq qavatini ko'rish va unda kechayotgan kasalliklarni davolash jarayonida qatnashish.

**2.2. Modul: Og'iz bo'shlig'i anatomiyasi va fiziologiyasi. Og'iz bo'shlig'i gigienasi**

Og'iz bo'shlig'i anatomiyasi. Og'iz bo'shlig'i ovqat hazm qilish tizimining boshlang'ich qismi bo'lib, ovqatni qabul qilish, chaynash va nutqda ishtirok etadi. U bir nechta tuzilmalardan tashkil topgan. Og'iz bo'shlig'i qismlari. Tishlarning tuzilishi: koronka, bo'yin qismi, ildiz. Tish to'qimalari.

Og'iz bo'shlig'i fiziologiyasi: Asosiy vazifalari, ovqatni qabul qilish, chaynash (mexanik ishlov berish) co'lak ajratish. Ta'm bilish, yutish jarayoni. Og'iz bo'shlig'i anatomiyasi va fiziologiyasini bilish stomatologiya hamshirasi uchun muhim, chunki: stomatologik kasalliklarni tushunish osonlashadi. davolash jarayonida shifokorga to'g'ri yordam beriladi, bemorlarga og'iz gigiyenasi bo'yicha to'g'ri tavsiyalar beriladi. Og'iz bo'shlig'i shaxsiy gigiyenasi, zararli odatlarni og'iz bo'shlig'iga salbiy ta'siri. To'g'ri ovqatlanish tartibining tish kasalliklarini oldini olishdagi ahamiyati.

**2.3 Modul: Stomatologik asbob-uskunalar ularning turlari. Asboblarni dezinfeksiya qilish va sterillash usullari.**

Stomatologiya muassasalarida sanitariya -gigiyena qoidalari. Infeksiya tarqalishining oldini olish. Stomatologik asbob-uskunalar ularning turlari. Stomatologiyada qo'llaniladigan asosiy asboblari: diagnostik, terapevtik, xirurgik va ortopedik asboblari. Ularning vazifasi va ishlatish qoidalari. Asboblarni dezinfeksiya qilish va sterillash usullari. Stomatologik materiallar va ular bilan ishlash.

**2.4. Modul. Terapevtik stomatologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va hamshira parvarishi.**

Stomatologik kasalliklar (kariyes, parodontit, pulpit, stomatit va b.) Stomatologik kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari. Kasalliklarning ilk belgilari. Tish qattiq to'qimalarining kariyesli nuqsonlari tasnifi, klinikasi, profilaktikasi va parvarishlash usullari. Periodontitlar tasnifi, klinikasi, qiyosiy tashxis va parvarishlash. O'tkir yiringli periodontitlarda birinchi yordam ko'rsatish. Pulpit va stomatitlar tasnifi. O'tkir va surunkali pulpitlar, klinikasi, davosi va parvarishi. Stomatologik kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni parvarishlashda OIV, gepatit V, S ni profilaktikasi (bir marotabalik stomatologik to'plamdan foydalanish).

**2.5. Modul. Xirurgik stomatologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va hamshira vazifalari.** Zamonaviy stomatologik jarrohlikning o'ziga xos xususiyatlari. Jarrohlik xonasi ishini tashkil qilish. Stomatologik jarrohlik xonasi hamshirasining lavozimlik burchlari, texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi. Pastki jag' sinishlari tasnifi, klinikasi, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Qon ketishini vaqtinchalik va uzil-kesil to'xtatish usullari. Chakka pastki jag' bo'g'imining chiqishi, turlari. Chakka pastki jag' bo'g'imining chiqishida birinchi yordam ko'rsatish. Yuz-jag' sohasidagi jarohatlar. Yuz-jag' sohasida jarohatlari bo'lgan bemorni qabul qilish. Yuqori jag' sinishi turini aniqlash. Yumshoq to'qimalar jarohatlari. Yuqori jag' sinishlari tasnifi, klinik ko'rinishlari. Yuqori jag' sinishlarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Yuz-jag' sohasi jarohatlarida birinchi yordam ko'rsatish. Yuz-jag' sohasida qon ketishida vaqtinchalik va uzil-kesil qon to'xtatish usullari. Yuqori jag' sinishlarida davolash usullari. Yuqori jag' sinishida shifokorgacha tibbiy yordam ko'rsatish. Vaqtinchalik va doimiy immobilizatsiya qilish. Pastki jag' sinishi turini aniqlash. Pastki jag' sinishida shifokorgacha tibbiy yordam ko'rsatish. Vaqtinchalik immobilizatsiya qilish. Doimiy immobilizatsiya qilishda shifokorga yordam berish. Chakka va pastki jag' bo'g'imi chiqishini aniqlash va shifokorgacha tibbiy yordam ko'rsatish. Og'riq shokida yordam ko'rsatish. Yumshoq to'qimalar jarohatlarida tibbiy yordam ko'rsatish. Qon ketishda vaqtinchalik va uzil-kesil to'xtatish usullari. Yumshoq to'qimalar jarohatlarida jarohatga tibbiy ishlov berish.

## **2.6. Modul. Yuz-jag' jarrohligining o'ziga hos hususiyatlari.**

Yuz-jag' sohasi xavfsiz o'smalari haqida umumiy ma'lumot. Yuz-jag' sohasi xafsiz va xavfli o'sma kasalliklari sabablari. O'sma kasalliklarida bemorni tekshirish usullari. Odontogen kistalar sabablari, klinikasi, davosi, parvarishi. So'lak bezi kistalari sabablari, klinikasi, davosi, parvarishi. Odontogen o'smalar va o'smasimon o'zgarishlar, ularni kelib chiqish sabablari, klinikasi, davosi va parvarishi. Yumshoq to'qima o'smalari, kelib chiqish sabablari, klinikasi hamshira parvarishi. Osteogen jag' o'smalari, klinik kechishi va hamshiralik parvarishi. Yuqori jag' raki klinikasi, davosi va hamshiralik parvarishi. Pastki jag' raki sabablari, klinikasi, davosi va hamshiralik parvarishi. Kaposhi sarkomasi sabablari, klinikasi, davosida hamshiralik parvarishi. Odontogen xavfsiz va xavfli o'smalarda bemorlarni parvarishlash. Yuz-jag' sohasi xavfsiz va xavfli o'sma kasalliklarini xirurgik davolashda hamshiraning o'rni. Operatsiyalarga bemorlar, asbob-anjomlarni tayyorlash va hamshiralik parvarishi.

## **2.7. Modul. Bolalar stomatologiyasining asoslari. Bolalarda og'iz bo'shlig'i gigiyenasi.**

Bolalar sut tishlarining anatomo-fiziologik xususiyatlari. Tish qattiq to'qimalarining kariyesli nuqsonlari tasnifi. Kariyesli nuqsonlar va kariyes klinikasi, parvarishlash usullari, profilaktikasi. Pulpit bilan og'rikan bolalarni parvarishlash. Yuz-jag' sohasida uchraydigan kasalliklarni oldini olish. O'tkir yiringli periodontitda birinchi yordam ko'rsatish, profilaktikasi. Bolalar terapevtik va xirurgik stomatologik kasalliklari tasnifi, parvarishlash usullari va profilaktikasi. Bolalarda jag' suyaklari rivojlanishi nuqsonlari, turlari. Bolalarda parodontit, gingivit, stomatitlarning tasnifi, klinikasi, kechishi va bu kasalliklarda hamshira parvarishi. O'tkir yiringli parodontitlarda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir yiringli periostit, klinikasi va davolash. Bolalarda odontogen osteomiyeliti klassifikatsiyasi. Pastki jag' va yumshoq to'qimalarda yiringli yallig'lanish jarayonlarini tarqalish bosqichlari. O'tkir osteomiyelit klinikasi, maxalliy belgilari, o'tkir yallig'lanish kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy tekshirish va davolash usullari. O'smalar tasnifi. Yuz-jag' va bo'yin soxasi yumshoq to'qimalar o'smalari. Yuz-jag' suyaklari o'sma va o'smasimon hosilalarni tasnifi. Stomatologik kasalliklarni terapevtik, xirurgik davolash va parvarishlashda OIV va gepatit B, C profilaktikasi (bir marotabalik stomatologik to'plamdan foydalanish).

## **2.8. Modul. Bolalar stomatologiyasining o'ziga hos xususiyatlari, hamshira parvarishi.**

Bolalar stomatologiyasida terapevtik va xirurgik kasalliklar tasnifi, profilaktikasi, parvarishlash usullari. Terapevtik, xirurgik kasalliklarni parvarishlashda OIV va gepatit B, C ni profilaktikasi (bir marotabalik stomatologik to'plamdan foydalanish). Bolalarda jag' suyaklari rivojlanishi. Sut tishlarda parodontit, gingivit, stomatit tasnifi, klinikasi, hamshira parvarishi. O'tkir yiringli parodontitlarda birinchi yordam ko'rsatish, parodontit, gingivit, stomatit kasalliklarini parvarishlashda OIV profilaktikasi (bir marotabalik stomatologik to'plamdan foydalanish). Bolalar orasida kasalliklarning klinik belgilari haqida tushuntirish ishlarini olib borish. Bolalarda o'tkir zardobli periostit. Klinik kechishi. Davolash. O'tkir yiringli periostit. Klinik manzarasi va davolash. Bolalarda odontogen osteomiyelit klassifikatsiyasi. Pastki jag' va yumshoq to'qimalarda yiringli yallig'lanish jarayonlarining tarqalish darajasi. O'tkir osteomiyelit manzarasi. Mahalliy belgilari. O'tkir yallig'lanish kasalliklari bo'lgan bemorlarni zamonaviy tekshirish va davolash. O'smalar tasnifi. Yuz-jag' va bo'yin sohasi yumshok to'qimalari o'smalari (biriktiruvchi to'qimalar va epitelial hujayralar). So'lak bezlari o'smalari. Yuz-jag' suyaklarining o'sma va o'smasimon hosilalari. Bolalarda yuzning yumshoq to'qimalarida o'smalarning o'ziga xos kechishi Yuz-jag' suyaklarining xavfsiz o'smalari. Suyakdan hosil bo'lgan o'smalar.

**2.9. Modul. Stomatologiyada anesteziya turlari. Tish olish amaliyotida hamshira vazifasi.** Tish va og'iz bo'shlig'ini mahalliy og'riqsizlantirish. Umumiy va mahalliy og'riqsizlantirish usullari, ularni o'tkazishga bo'lgan ko'rsatmalar. Og'riqsizlantirish uchun ishlatiladigan dori preparatlari, ulardan foydalanish. Premedikatsiya. Mahalliy og'riqsizlantirish usullari. Og'riqsizlantirishdagi xatoliklar, asoratlar (anestetikdan zaharlanish, qisqa xushsizlik holati, anafilaktik shok) va ularni bartaraf etish tadbirlari. Zamonaviy og'riqsizlantirish usullari. Infiltratsion, o'tkazuvchi, tuberal, infraorbital anesteziya o'tkazishda tibbiyot hamshirasining vazifasi. Palatinal anesteziya o'tkazish jarayonida shifokorga yordam berish. Kurak tishi teshigi sohasini og'riqsizlantirish. Mandibulyar, torusal anesteziya. Til, engak nervini og'riqsizlantirish usullari. Tish olishda ishlatiladigan asboblardan to'plam. Tish olish operatsiyasi. Tish olishda uchraydigan asoratlar va ularda yordam ko'rsatish. Stomatologik kasalliklarni xirurgik davolash va parvarishlashda OIV va gepatit B, C profilaktikasi (bir marotabalik stomatologik to'plamdan foydalanish).

## **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O‘quv bazalari:** Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko‘chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

**4.2. Mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar ro‘yxati:**

Modul bo‘yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to‘plami bo‘lgan rrt ko‘rinishli ma‘ruzalar, SD diskda ko‘rgazma materiallar, ekran videofilmlar. Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustaxkamlash trening o‘kuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar. Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar.

**4.3. Adabiyotlar:**

**4.3.1. Qonunchilik va me‘yoriy-xuquqiy xujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruq va me‘yoriy hujjatlari.

**4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. A.I.Nikolayev, L.M.Sepov: “Prakticheskaya terapevticheskaya stomatologiya”. Moskva, “Med press-inform” 2004 god.
2. Luskaya I. K.: “Rukovodstvo po stomatologii” Izd. 2e dopolnen. i pererabotannoye. Rostov na Donu.”Feniks”, 2002 god.
3. YE.V.Borovskiy, V.S.Ivanov, Y.M.Maksimovskiy, L.N.MaksimovskaY. “Terapevticheskaya stomatologiya”. Moskva, “Meditsina” 2002g.
4. “Terapevticheskaya stomatologiya”. Uchebnik pod redaksiyey YE.V.Borovskogo. M.:”Meditsinskoye informatsionnoye agenstvo”. 2004g.
5. “Terapevticheskaya stomatologiya”. Chast 2. Bolezni parodonta.Uchebnik. Professor G.M.Barer, Izdatelstvo “GEOTAR-Media” 2008 g.
6. “Terapevticheskaya stomatologiya”. Natsionalnoye rukovodstvo pod red.L.A. Dmitriyevoy, Y.M. Makashovskogo. M. : GEOTAR-Media, 2009 g.
7. L.M.Sepov, A.I.Nikolayev, YE.A.Mixeyeva: “Diagnostika, lecheniye i profilaktika zabolevaniy parodonta”. 3-ye izd., ispr. i dop. —M.: MED press-inform, 2008g.
8. Orexova L.Y.: “Zabolevaniye parodonta” M: Poli Media Press, 2004 g.
9. Parodontologiy. Xans-Peter-Myuller. Per. s nem. - Lvov: GalDent, 2004g.
10. N.N.Bajanov: “Stomatologiya”. Uchebnik. Moskva. GEOTAR-MED,2002 g.

**4.3.3. Elektron ta’lim resurslari**

[www.medi.ru](http://www.medi.ru),  
[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru),  
[www.medscape.com](http://www.medscape.com),  
[www.medland.ru](http://www.medland.ru),  
[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru),  
[www.ksmed.ru/pat/gynecology](http://www.ksmed.ru/pat/gynecology),  
[www.medsan.ru](http://www.medsan.ru),

**5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

**5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar.**

Yakuniy attestatsiya O‘zR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.